


## QASHQADARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyul)

ViLOYAT bo'yicha joriy yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi


5214,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,0 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 167,5 mlrd.so'mni (o'sish sur'ati 40,3%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 4601,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,5%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 445,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,8 % ) tashkil etdi.

### Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning ko'pchilik tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Muborak (108,4%), Koson (108,1%), G'uzor (106,5%), Chiroqchi (106,4%) va Nishon (104,1%) tumanlarida qayd etildi. Chakana savdo aylanmasi quydagi tumanlarda kamayish kuzatildi Qarshi tumani (97,2%), Qamashi tumani (97,7%) va Qarshi shahri (98,1%) da.


**Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`ngan yilning mos davriga nisbatan kamayish kuzatilib 40,3 % ni va 167,5 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,2 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 5047,1 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 107,5 % ga etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,8% ga teng.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)**



**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



■ **Kichik tadbirkorlik**  
■ **Yirik korxonalar**


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Koson (100,0%), Kitob (100,0 %), Mirishkor (99,9 %) va Dehqonobod (99,9%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Viloyat bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shaxrisabz tumanida (21,7 %), Qarshi shahrida (8,3 %) va Muborak (2,3%) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<b>Yirik korxonalar (mlrd.so`m)</b>	<b>O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>	<b>Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)</b>	<b>O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>167,5</b>	<b>40,3</b>	<b>5047,1</b>	<b>107,5</b>
<b>G`uzor</b>	2,2	120,1	202,0	106,4
<b>Dehqonobod</b>	0,4	6,7	264,1	105,8
<b>Qamashi</b>	0,5	7,4	358,1	99,4
<b>Qarshi</b>	1,0	89,3	207,8	97,2
<b>Koson</b>	0,2	3,0	502,7	109,6
<b>Kitob</b>	0,0	0,0	341,8	104,7
<b>Mirishkor</b>	0,3	5,2	237,5	105,6
<b>Muborak</b>	3,7	88,7	155,5	109,0
<b>Nishon</b>	0,6	90,7	204,2	104,2
<b>Kasbi</b>	0,8	16,0	224,1	105,8
<b>Chiroqchi</b>	1,3	105,3	436,8	106,4
<b>Shaxrisabz</b>	40,7	201,9	147,2	91,5
<b>Yakkabog`</b>	6,0	365,3	272,8	100,2
<b>Qarshi sh</b>	108,2	31,7	1192,5	121,0
<b>Shaxrisabz sh</b>	1,5	18,8	299,7	102,4

**Shahar va tuman kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



2019 yil yanvar-iyul oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1616,1 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 100,4 % ni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori ko`rsatkichlar Qarshi shahri (4784,0 ming.so`m), Shaxrisabz shahri (2188,9 ming.so`m) va Mirishkor (2027,1 ming.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Shaxrisabz (858,7 ming.so`m), Qarshi (859,7 ming.so`m), va G`uzor (1020,7 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1616,1</b>	<b>100,4</b>
<b>G`uzor</b>	1020,7	105,0
<b>Dehqonobod</b>	1831,3	102,1
<b>Qamashi</b>	1347,1	96,1
<b>Qarshi</b>	859,7	95,5
<b>Koson</b>	1798,7	106,3
<b>Kitob</b>	1314,8	100,9
<b>Mirishkor</b>	2027,1	101,8
<b>Muborak</b>	1869,4	106,8
<b>Nishon</b>	1371,3	102,3
<b>Kasbi</b>	1167,9	102,1
<b>Chiroqchi</b>	1090,2	104,2
<b>Shaxrisabz</b>	858,7	102,4
<b>Yakkabog`</b>	1077,4	100,1
<b>Qarshi sh</b>	4784,0	97,0
<b>Shaxrisabz sh</b>	2188,9	98,7

Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyul oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,2 %ni tashkil etib, 114,5 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 101,3% o`shishga erishildi.


## QASHQADARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyul)

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1560,5 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 95,9 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyul oyi yakunlariga ko`ra, 918,6 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 103,5 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 58,9 % ni tashkil qilmoqda.

### Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



**Yirik  
korxonadlar**

**Kichik  
korxonalar**


Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalarining ulushi 41,1 % ni tashkil etdi.

### Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd..so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>1560,5</b>	<b>95,9</b>	<b>641,9</b>	<b>86,7</b>	<b>918,6</b>	<b>58,9</b>
<b>G`uzor</b>	2,6	55,1	0,2	70,2	6,5	97,4
<b>Dehqonobod</b>	31,0	26,6		0,0	2,6	100,0
<b>Qamashi</b>	72,0	2 M	16,4	180 M	14,6	47,1
<b>Qarshi</b>	54,4	89,0	18,6		53,4	74,1
<b>Koson</b>	54,8	94,3	0,0		54,4	100,0
<b>Kitob</b>	50,9	124,7	0,0	3,4	54,8	100,0
<b>Mirishkor</b>	43,3	4 M	34,8		16,2	31,7
<b>Muborak</b>	85,6	167,9	34,8	2 M	8,5	19,6
<b>Nishon</b>	49,2	155,7	32,7	205 M	52,9	61,8
<b>Kasbi</b>	28,0	4,9 M	34,9	408 M	14,2	29,0
<b>Chiroqchi</b>	12,2	42,2	0,0	72,2	28,0	99,9
<b>Shaxrisabz</b>	25,5	52,1	0,2	39,2	12,1	98,7
<b>Yakkabog`</b>	977,3	77,1	0,2	154,5	25,3	99,4
<b>Qarshi sh</b>	67,0	86,5	468,4	64,9	508,9	52,1
<b>Shaxrisabz sh</b>	6,7	122,1	0,7	22,4	66,2	98,9



**Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o`shish sur`atlari Kasbi (4,9 m%) va Mirishkor (4 m %), Qamashi (2 m%), tumanlarida qayd etildi. Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o`shish sur`atlari esa Dehqonobod (26,6%) va Chiroqchi (42,2 %), Shaxrisabz 52,1 %) tumanlarida qayd etildi.